

**Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti talabalarini
rag‘batlantirish maqsadida “University points” va “Rector’s points”
tizimlari to‘g‘risida**

N I Z O M

1-bob. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Nizom Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti (keyingi o‘rinlarda – Universitet) talabalari (bakalavr, magistr) hamda abituriyentlar (o‘rnatilgan tartibda murojaat qilganidan so‘ng) uchun qo‘shimcha rag‘batlantirish, talabalarni kelgusida ish bilan ta‘minlashda ko‘maklashish, raqobat muhitini shakllantirish hamda ta‘lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish maqsadida ishlab chiqilgan.

1.2. Tizim ikki turdagi rag‘batlantirish ballaridan iborat:

- **University points** – talabalarning o‘quv, ilmiy, ijtimoiy va ko‘ngillilik faoliyatida aniq natijaga ega amalga oshirilgan ishlar uchun beriladigan ballar.
- **Rector’s points** – universitet faoliyati bilan bog‘liq vazifalar, loyihalar va talabalarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun beriladigan ballar.

1.3. Ushbu ballar faqat aniq natija ko‘rsatilgan faoliyat uchun beriladi.

1.4. Ballar talabaning semestr yakunidagi **imtihon natijasini yaxshilash** maqsadida foydalanilishi mumkin, bunda talabaning fan bo‘yicha yakuniy imtihondan keyingi to‘plagan ballari **12 balldan kam bo‘lmasligi** lozim.

2-bob. “University points” tizimi

2.1. Ballar beriladigan yo‘nalishlar:

- Talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha ichki tanlovlarda muvaffaqiyatli qatnashish: (MS Office skills, AI prompt engineering, communication, leadership, presentation, pitching, speed typing va boshqalar).
- Xalqaro darajada tan olingan sertifikatlarni taqdim etish: (Google, Oracle, Cisco kabi IT sertifikatlari; IELTS, TOEFL, HSK, TestDaF kabi til sertifikatlari, SAT, GRE, GMAT kabi xalqaro sertifikatlar).
- Universitetning o‘quv-uslubiy faoliyatini yaxshilashga qaratilgan ishlarda faol ishtirok etish, darslik, o‘quv qo‘llanma, oraliq, joriy va yakuniy nazorat savollari matnini tahrirlash, fan kontentlarini platformaga kiritish, videodarslar va boshqa elektron materiallari dizayni bilan shug‘ullanish, raqamli kontentlarni yaratish, talabalar o‘rtasida o‘tkaziladigan so‘rovnomalarda qatnashish, talabalarning o‘zlashtirishini yaxshilashga qaratilgan peer-learning darslarini o‘tish, amaliyot darslarini tashkil etishda faollik ko‘rsatish, universitetning imidjini oshirishga qaratilgan loyihalarda faol ishtirok etish, fan to‘garaklarida faol bo‘lish.
- Ilmiy faoliyat: patent (DGU) olish, maqola chop etish, ixtiro/MVP yoki dastur yaratish, konferensiya va ilmiy seminarlarda ma‘ruza bilan ishtirok etish, ilmiy-tadqiqot loyihalarida ishtirok etish.
- Fan olimpiadalari, hackathonlar va tanlovlarda g‘oliblik.

- Talabalar hayotini yaxshilash bo'yicha tashabbuslar (masalan, imtihonlarga tayyorlov mashg'ulotlari o'tkazish).
- Ko'ngillilik (volonterlik) faoliyati (ma'lum bir muddat davomida).
- **3 oydan kam bo'lmagan muddatda** o'z mutaxassisligi bo'yicha ish faoliyatini olib borganda (tegishli hujjatlar taqdim etilganda).

2.2. Ballarni berish tartibi:

- Talaba Talabalar bilan ishlash boshqarmasiga ariza bilan murojaat qiladi.
- Murojaat universitet rektori buyrug'i bilan tasdiqlangan maxsus komissiya (keyingi o'rinlarda – Komissiya) tomonidan ko'rib chiqiladi.
- Natijaga qarab **1 dan 10 gacha ball** beriladi.
- Ballar **bir semestr davomida 3 tagacha fandan** imtihon natijasini yaxshilash uchun ishlatiladi.

2.3. Xalqaro sertifikatlar bo'yicha qoida:

- Talaba o'qish davrida xalqaro sertifikat evaziga faqat bir marta imtihon natijasini yaxshilashi mumkin.
- Agar talaba yuqoriroq darajadagi sertifikat taqdim etsa, qo'shimcha ball olish uchun qayta murojaat qilishi mumkin.
- Sertifikat mavqei, uni olish uchun sarflangan vaqt, mablag', sertifikat darajasi inobatga olingan holda ballar taqsimlanadi.

3-bob. "Rector's points" tizimi

3.1. Ushbu ballar Universitetdagi amaliy vazifa va chaqiriqlarni hal etish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shish va talabalar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida Universitet talabalariga beriladi.

3.2. "Rector's points" tartibi:

- Vazifa (texnik topshiriq) aniq shaklda universitet ijtimoiy tarmoqlari va maxsus platformada e'lon qilinadi.
- Vazifani bajarish uchun talab etiladigan vaqt, resurs va talabalar soni belgilanadi.
- Ishtirok etish istagini bildirgan talabalar Talabalar bilan ishlash boshqarmasi tomonidan ro'yxatga olinadi.
- Vazifani bajarishda mentor biriktiriladi (rektor/universitet xodimlari/boshqa mutaxassislar).
- Vazifa yakunida taqdimot o'tkaziladi va Komissiya baholash asosida ball beradi.

3.4. Ballarni berish tartibi:

- Talaba yoki jamoa erishgan natijaga qarab 1 dan 10 gacha ball oladi.
- Jamoa bo'lib bajarilgan ishda ball teng taqsimlanadi.

- “Rector’s points” ballari **bir semestr davomida 3 tagacha** fandan imtihon natijasini yaxshilash uchun ishlatiladi.

4-bob. Umumiy cheklovlar

4.1. Talaba har qanday fanini darsdan tashqari to‘planadigan ballar (“University points”, “Rector’s points”, “Tutor point”) bilan yopishga ruxsat berilmaydi. Ya’ni, darsdan tashqari yig‘ilgan ballar **faqat bahoni yaxshilash uchun** ishlatiladi.

4.2. Talaba darsdan tashqari barcha dasturlar orqali bir semestr davomida imtihon natijalarini yaxshilash uchun bitta fanga **eng ko‘pi bilan 15 ball** yo‘naltirishi mumkin.

4.3. Ballar **pul ekvivalenti sifatida foydalanilmaydi** va boshqa imtiyozlarga almashtirilmaydi.

4.4. Ballar boshqa talabaga o‘tkazib berilmaydi.

5-bob. Ballarni hisoblash tartibi va muddatlari

5.1. Komissiya har bir semester davomida taqdim qilingan ishlarni ko‘rib chiqib, natijalarni e’lon qilib boradi.

5.2. Har bir semestr uchun yakuniy ballar ro‘yhati Universitet rektori tomonidan tasdiqlanadi va **sessiya imtihonlari boshlanishidan oldin** e’lon qilinishi shart.

5.3. Qishki va yozgi sessiyalar davomida har bir urinish (Exam call) yakunlangandan so‘ng, talaba o‘zi tanlagan fanlariga ballarni qo‘shishni istasa, ushbu fanlar bo‘yicha yozma ariza topshirishi shart. Ballar 3 ish kuni ichida tegishliligi bo‘yicha biriktirilishini O‘quv-uslubiy bo‘lim va Talabalar bilan ishlash boshqarmasi nazorat qiladi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

6.1. Ushbu Nizom universitet Kengashi tomonidan tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6.2. Nizomga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar universitet Kengashi qarori bilan kiritiladi.

6.3. Ballar belgilashdagi javobgarlik Komissiya zimmasida qoladi.

6.4. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.